

**TABIIY SIQILGAN GAZ SOTISH UCHUN SHARTNOMA №22**

15 yanvar 2022 yil

Uzun tumani

Bizlar bir tomondan «Baxtiyor Nur kompaniya» xususiy korxonasi rahbari S. Qosimov keyinchalik «Sotuvchi» deb nomlanadi, ikkinchi tomondan «Obodonlashtirish boshqarmasi» rahbari B.To'rayev keyinchalik «Sotib oluvchi» deb nomlanadi, amaldagi korxonaga Nizomiga asosan quyidagi shartnomani tuzdik.

**1.1. «SOTUVCHI» quyidagi maxsulotni sotish majburiyatini «Sotib oluvchi» sotib olish**

I. №	Maxsulot nomi	Ulchov birligi	Jami yillik maxsulot miqdori	1M <sup>3</sup> Gaz narxi	Shu jumladan yil choraklar bo'yicha			
					I	II	III	IV
1	Siqilgan tabiiy gaz	M <sup>3</sup>	2326,6	2600	6049160			
	-							
	<b>JAMI</b>	<b>m.sum</b>	<b>2326,6</b>	<b>2600</b>	<b>6049160</b>			

2. 1.2 "Sotuvchi" ning avtomashinasiga gaz quyish shaxobchasi (AGTKSh) orqali quyish yo'li bilan amalga oshiriladi.
3. 1.3 "Sotib oluvchi" avtomashinaga gaz quyilgan sana, maxsulot etkazish sanasi xisoblanadi.

**TO'LOV TARTIBI**

- 2.1. Mazkur shartnoma tuzilgan vaqtdagi umumiy summasi **6 049 160 (olti million qirq to'qqiz ming bir yuz oltmish)** sumni tashkil etadi, xom ashyo material, yoqilg'i energetika resurslar narxi o'zgariganda, shuningdek O'zbekiston Respublikasida mavjud normativ aktlar, qarorlar o'zgariganda ushbu summa xam o'zgarishi mumkin.
- 2.2. Gaz olingan kundagi narx bo'yicha to'lov amalga oshiriladi.
4. 2.3. Tabiiy gaz "Tarqatish qaydnomasi" asosida beriladi.
5. 2.4. Siqilgan tabiiy gazni quyish "Sotib oluvchi" tomonidan «SOTUVCHI»ning xisob rakamiga oldindan 100 % pul mablag'i ko'chirilgandan so'ng "Sotib oluvchi" tomonidan taqdim qilingan ro'yxat, ishonchnoma va belgilangan tartibdagi tarqatish vedomosti (№ 1 - ilova) ga asosan ko'chirilgan pul mablag'lari doirasida amalga oshiriladi.

### 3. TOMONLARNING XUQUQ VA MAJBURYATLARI

6. 3.1. “Sotib oluvchi” gazga qayta jixozlangan avtomashinadan foydalanish davomida, texnika xavfsizligi va texnik xolati uchun to’liq javobgarlik majburiyatini o’z zimmasiga oladi.
7. 3.2. “Sotib oluvchi” ning majburiyatlari:
8. a) amaldagi qoidalarga: texnik xolatga, tabiiy gazdan foydalanish masalalari bo’yicha yo’riqnomaga to’liq amal qilish;
9. b) avtomashinaning gaz balon uskunasi soz xolatda saqlash;
10. v) gaz balonining geometrik xajmi va texnik xolati to’g’risida yo’l varaqasida belgi qo’yish;
11. g) belgilangan tartibda avtomashinaga gaz quyish uchun maxsus ruxsatnoma olish.
12. 3.3 “Sotuvchi” ning xuquqlari:
13. a) avtomashinaning gaz moslamalarini to’g’ri ekspluatatsiya qilinayotganligini nazorat qilish, o’lchov asboblarini sozligini tekshirish;
14. b) xaydovchining tabiiy gazda ishlashga xuquqi borligi xaqidagi guvoxnomasini tekshirish;
15. v) “Sotib oluvchi” belgilangan qoidalarga, gaz quyish reglamentiga va shartnoma shartlariga rioya qilmaslik xolati aniqlanganda, tabiiy gaz berishni to’xtatish.
16. 3.4 “Sotuvchi” va “Sotib oluvchi” gaz xajmining o’rtacha kunlik normasidan kelib chiqqan xolda oylik gaz miqdorini bir maromda uzutisha va qabul qilishi shart, “Sotib oluvchi” tabiiy gaz iste’moli davomida yuzaga keladigan kelgusi o’zgarishlar xaqida yil chorak boshlanishidan 15 kun oldin “Sotuvchi” yozma xolda yoki telefonagramma orqali ma’lum qilishi shart.

“Sotuvchi” AGTKSh dagi uskunalarining navbatdagi joriy remontini amalga oshirishda 15 kun oldin (sotib oluvchi ogoxlantiradi).

### 4. GAZ XISOBI

17. 4.1. “Sotib oluvchi” ga berilgan gaz miqdori tarqatish qaydnomasi bo’yicha aniqlanadi.
18. 4.2. “Sotib oluvchi” berilgan siqilgan gazning miqdori davlat standarti tomonidan 13.01.95 yildan (reg № 418) tasdiqlangan.”AGTKShda yuborilgan gaz xajmini o’lchash va uning xisob kitobi bo’yicha qullanma, RD Uz 51-034-94” asosida “O’zbekneftgaz” milliy kompaniyasi tomonidan 25.11.95 yilda tasdiqlangan “AGTKSh”da iste’molchiga tarqatilgan gaz xajmini aniqlash jadvaliga muvofiq “Sotuvchi” ning o’lchov asboblari orqali aniqlanadi.

### 5. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI

19. 5.1. Shartnomada ko’rsatilgan tabiiy gaz umumiy xajmidan ortiq miqdorda olingan gaz uchun qo’shimcha kelishuv rasmiylashtiriladi. Ajratib olinmagan gaz uchun 01.01.2022 y amaldagi narxi bilan jarima to’laydi. “Sotuvchi” va “Sotib oluvchi” quyidagi xollarda gaz xajmini ko’paytirish yoki kamaytirishga xuquqlari va bu uchun javobgar emasdirlar.
20. a) kutilmaganda gaz quvurlari, shaxar, elektr, gaz tarmoqlarida sodir bo’lgan avariya xollarida;

21. b) magistral gaz quvurlari, shaxar elektr, gaz tarmoqlarining navbatdagi joriy remonti, xamda shu bilan bog'liq bo'lgan sinov va payvandlash ishlari davomida.
22. 5.2. Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlar bajarilishi bo'yicha tomonlar, O'zbekiton Respublikasi qonunchiligiga asosan javobgardirlar.

#### 6. ShARTNOMNING AMAL QILISH MUDDATI

23. 6.1. Shartnoma tomonlarning imzo qo'ygan kundan boshlab kuchga kiradi, 2022 – yil 31 – dekabr gacha amal qiladi.
24. 6.2. Shartnoma 2 nusxada tuziladi. “Sotuvchi” va “Sotib oluvchi” ga taqdim etiladi.
25. 6.3. Mazkur shartnoma bo'yicha yuzaga kelgan kelishmovchiliklar xo'jalik sudi tomonidan O'zbekiton Respublikasi qonunchiligiga asosan ko'rib chiqiladi.

#### 7. KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASHISH

26. 1. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiton Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni O'zbekiton Respublikasi Adliya vazirligi xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.
27. 2. Agar shartnoma bo'yicha bir taraf O'zbekiton Respublikasi Adliya vazirligi xodimining axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiton Respublikasi qonun hujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korruptsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak:
  28. “1008” ishonch telefoni; Telegram-kanali (@anticorbot);
  29. Adliya vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl yoki electron pochta.

#### 8. TOMONLAR YURIDIK MANZILLARI.

##### «SOTUVCHI»

«Baxtiyor-Nur kompaniya» x/k  
boshqarmasi

Sariosiyo k/kurilish bank  
X/r 20208000204 93187001  
MFO: 00014 BTIR 204984694  
205 703 24

Manzil: Uzun tuman 1. Sherkatlov kuchasi  
Telefon: Q 99899 228 – 80 300  
Fax: 81 205 703 24



##### «SOTIB OLUVCHI»

Uzun tuman Obodonlashtirish

Uzun tuman O'zbekiton ko'chasi 5-uy  
h/r 10002286022217065200110004  
MFO 00014 STIR

Toshken sh. XKKM MB  
tel 75-44-680  
boshliq B. To'rayev







## YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi "Shartnoma"
2. Loyihaning nomi "Maxsulot yetkazib berish to'g'risida"

Bir tomondan «Baxtiyor Nur kompaniya» xususiy korxonasi raxbari nizomiga asosida faoliyat yurituvchi S. Qosimov keyinchalik "Sotuvchi" deb nomlanadi, ikkinchi tomondan «Obodonlashtirish boshqarmasi» raxbari nizomiga asosida faoliyat yurituvchi B.To'rayev keyinchalik «Sotib oluvchi» deb nomlanadi, kuydagi shartnomani shartnoma shartlarini bajarish to'g'risida.

Asos: "25.01.2022 yilda tuzilgan 22-sonli shartnoma.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz boshyuristkonsulti

25.01.2022 yil.



M.Minkulov.

